

## **YOSHLAR ONGIDA VATANGA BO'LGAN MEHR-MUHABBAT HAMDA YUKSAK VATANPARVARLIK RUHINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11404013>

**Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o'g'li**

*FarDu Harbiy ta'lim magistri 2-kurs*

### **Anatatsiya**

*O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, "dunyo odami" tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va ma'naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka – umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni ma'lum ma'noda mujassamlashtiradi.*

### **Kalit so'zlar**

*Vatanparvarlik, yangicha, tushunchalar, avlodla, jarayonlar, yoshlar, bosqich, Globalizm, axborot vositalari, tizimi, ma'lumot.*

### **Kirish**

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonavy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

### **Asaisy qism**

Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya o'ta muhim, nozik va hal qiluvchi masala ekanligini ta'kidlab [25;131], bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo'ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an'analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda

yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etishida qog'ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo'l qo'yish katta xato ekanligi ta'kidlandi, shuning uchun talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha yangicha metodologiyani ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'limi sohasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni [2] hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» [3] da belgilangan vazifalarning to'laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo'ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ'ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta'sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida [7] davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning beshta ustuvor yo'nalishlaridan biri «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» qilib belgilanganligi harbiy vatanparvarlikni chinakam e'tiqodga aylantirish bilan bog'liq ilmiy muammolarni tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu tadqiqot ishi asosida talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tariyalash orqali ularda fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantirish maqsad qilindi va bu maqsadni amalga oshirish uchun maxsus metodologik vazifalar belgilab olindi. Bu vazifalar orqali talaba-yoshlarning harbiy-vatanparvarlik xarakteri rivojlantirish, ona - yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni taqozo qilmoqda.

Shu munosabat bilan ta'lim muassasalari talaba-yoshlarda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi pedagogik ta'limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko'tarish talab etiladi. Vatanparvarlik millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab-avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, «vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg'udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: "Vatanga bo'lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi» [86;3]. Demak, o'zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o'z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug' tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo'ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaflı burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol daolat beradi [25;371].

Tadqiqot ishi doirasidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda vatanparvarlik kategoriyasining mazmun mohiyati, lug'atlarda tariflanishini tahlil etishni maqsadga muvofiq deb hissobladik.

#### Xulosa

Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini Vatan tushunchasi tashkil qiladi. Vatan tushunchasi yo'q joyda vatanparvarlik to'g'risida so'z yuritib bulmaydi. Vatan (arab. o'sgan joy, yurt) - kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, shaxri yoki qishlog'i, yurt, diyoy yoxud kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat, ona yurt [71;444] sifatida tariflanadi. Ushbu tushuncha horijiy ilmiy manbalarda patriotizm (yunon. Patriotes- vatandosh, «patris» - Vatan) Vatanga muhabbat, tug'ilib o'sgan yurt bilan bog'liqlik va unga sadoqatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Patriotizm ko'pincha o'z Vatanining tarixi, madaniyati, qadriyatiga bo'lgan muhabbat sifatida talqin etiladi. Biroq patriotizmga nisbatan vatanparvarlikning mazmun jihatdan qamrovi ancha keng - u, nafaqat o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, balki inson ozodligi yo'lidagi xatti-harakatlardir. Aslida «vatan» - aniq tushuncha. U keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Bir xalk vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hududni ifodalaganda u keng ma'noga ega bo'ladi. YA'ni, tili, e'tiqodi, urf-odatları va milliy xususiyatlari bir bo'lgan avlodlar yashayotgan jo'g'rofiy muhitni «Vatan» tushunchasi ifodalaydi. Kishi tug'ilib o'sgan uy, maxalla, qishloq, shahar nazarda tutilsa, bu Vatanni tor ma'noda tushunishdir [42;13]. Vatanparvarlik - kishilarning o'z ona Vatani, yurtiga muhabbati va uni asrab-avaylashga bo'lgan intilishini anglatadi. Vatanparvarlik barcha kishilar, halk,

millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu Vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, O'zbekiston, 23.09.2020. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2018 y., 06/18/5430/1164-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –Toshkent: O'zbekiston, 463-I-son 29.08.1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 105-1-sonli «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini» to'g'risidagi Qarori 1995 yil 30 avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-II-son «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qarori. 2002 yil 12 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash shart-sharoitlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4054 sonli Farmoni 2008 yil 20 noyabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyun.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909 sonli Qarori / Xalq so'zi. 2017 yil 16 may.